

TURKISTON JADIDCHILARI FAOLIYATINING XOTIN-QIZLAR VA YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Nazarova Guliston Bobomurodovna

Rashidova Farida Fatullayevna

Navoiy shahar politexnikumi tarix fani o'qituvchilari

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada dastlab Qrimda, keyinchalik Markaziy Osiyo hududida jadidchilikning paydo bo'lishi, taraqqiyat parvar jadidchilarning faoliyati, jadidchilikning aholi turmush tarziga ta'siri, jadidchi xotin-qizlar faoliyati haqida mulohazalar yuritilgan. Yosh avlodning vatanparvar, millat kelajagi uchun jonkuylar shaxs bo'lib shakllanishida, ularning komil inson bo'lib tarbiyalanishida jadidchilar harkatini o'rGANISHNING ahamiyati haqida fikrlar keltirilgan.*

ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДИСТОВ В ВОСПИТАНИИ ЖЕНЩИН И МОЛОДЕЖИ

Назарова Гулистан Бобомуродовна

Рашидова Фарида Фатуллаевна

Учителя истории Навоийского городского политехникума

АННОТАЦИЯ: В статье рассматривается возникновение джадидизма сначала в Крыму, а затем в Средней Азии, деятельность прогрессивных джадидистов, влияние джадидизма на образ жизни населения, деятельность женщин-джадидисток. Также обсуждается важность изучения джадидского движения в формировании подрастающего поколения как патриотов и личностей, увлечённых будущим нации, в воспитании их как полноценных людей.

THE IMPORTANCE OF THE ACTIVITIES OF TURKESTAN JADIDISTS IN THE EDUCATION OF WOMEN AND YOUTH

Nazarova Guliston Bobomurodovna

Rashidova Farida Fatullaevna

History teachers of the Navoi City Polytechnic

ANNOTATION: *The article examines the emergence of Jadidism first in Crimea and then in Central Asia, the activities of progressive Jadidists, the influence of Jadidism on the lifestyle of the population, and the activities of Jadidist women. It also discusses the importance of studying the Jadid movement in shaping the younger generation as patriots and individuals passionate about the future of the nation, and in educating them as full-fledged people.*

Kirish. Uchinchi Rennesans davrida millat tarixini har tomonlama chuqur o'rganish yoshlarning dunyoqarashini kengayishiga, ota-bobolarimiz tarixiga bo'lgan qiziqishining oshishiga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo hududida jadidlarning milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslik, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolayotganini alohida qayd etgan edi. Shu jihatini hisobga olgan holda jadidlar harakatining mohiyatini yoshlar ongiga haqqoniy tarzda singdirish ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak, bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jaded bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar zarur. Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Chunki ularning g'oya va dasturlari yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir"¹, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Asosiy qism. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyorilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloq qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidlar harakati mohiyatan siyosiy harakat edi. Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshida vujudga kelgan jadidchilik harakati – milliy uyg'onish, milliy ozodlik harakati edi. Uning shakllanishi va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rt davrga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududlarida bu davrlar quyidagicha izohlanadi:

- 1-davr: 1895 – 1905-yillar;
- 2-davr: 1906 – 1916-yillar;
- 3-davr: 1917 – 1920-yillar;
- 4-davr: 1921 – 1929-yillarni o'z ichiga oladi.

Ushbu davrlarda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratad, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlab ish tutdi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan

¹ Мирзиёев Ш.М. «Жадидлар ғоялари янги Ўзбекистон стратегияси билан ҳамоҳангдир»// <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/>

qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari shundan iborat ediki, Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish maqsad qilingan edi. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadreddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Jadidlar faoliyatining eng e'tiborli masalalaridan yana biri shuki, Turkistonda xotin-qizlarning savodxonlik darajasi juda past ekanligi, ular faqatgina otinoyilar bo'lib, o'z uylarida yoki uy maktablarida o'qib, o'qish davomida 3-4 tagina diniy suralarni yodlab, so'ng ular uy ishlari bilan shug'ullanishi, nari borsa tikish-bichishni o'rganishi, keyin esa jamiyatda qat'iy qonun-qoidaga aylangan erta oila qurish majburiyatini olib, shu bilan bir umr to'rt devor ichida yashashlarini qattiq tanqid qilib, erkak va ayollar teng haq-huquqga ega ekanliklari, bola tarbiyasi bilan asosan onalar tarbiyalaganliklari bois, millat taqdiri uchun ularning bilim saviyasini ko'tarish va yangi maktablar tashkil etishni yoqlab chiqdilar. Jamiyatda xotin-qizlar masalasi ham jadidlar faoliyatida dolzarblik kasb etdi. Turkiston jadidlarining asosiy maqsadi ayollarning ham dunyoviy bilimlarni egallahlariga yo'l ochib berish edi. Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yilda "Oyna" jurnalining 11-12-sonlarida nashr etilgan "Til masalasi" nomli maqolasida "Taraqqiy etgan millatlarni onalari o'qitar ekan, biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandir"², deb ushbu maqolada millat tili masalasiga, turkiy til masalasiga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandası Abdurauf Fitrat o'zining "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" kitobida "Modomiki, ilm olish har bir odam uchun diniy va

² Mahmudxo'ja Behbudiy. Til masalasi // "Oyna" jurnali. 1915. B. 274-277. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/mahmudxo-ja-behbudiy-til-masalasi-1915>

dunyoviy majburiyatlarga kirar ekan, ayollar ham ilm o'rganishlari shartdir"³, deb yozadi. Ayollarning ilmli bo'lishlari bilan birga oilada ularga bo'lgan e'tibor to'g'risida fikr yuritgan. Ulug` adibimiz Abdurauf Fitratning badiiy va ilmiy asarlari bilan birga axloqiy masalalarga doir bir qator risolalari bor. Ularda komil inson shaxsini shakllantirish bilan bog`liq muammolar va ularning yechimi aks etgan. Jamiatning asosi bo`lgan oila, uning inson hayotidagi o`rnii, oila boshlig`i va a`zolarining vazifalari hamda oilaviy tarbiya muammolari o`z aksini topgan". Jadidlar xotin-qizlarning ilm olishlari kerakligi haqidagi qarashlarini targ`ibot qilish bilan cheklanib qolmadilar. Balki o`zlar yangi usul maktablarida qizlarni o'qitish bo'yicha dastlabki qadamlarni tashladilar. Shunday maktablardan biri Abduqodir Shakuriy maktabi bo'lib, qizlar uchun ham sinflar tashkil etilgan. Bunday maktablar Turkistonning boshqa shaharlarida ham ochila boshlagan. Toshkentdagi Eshonxo'ja Xonxo'jayev yangi usul mакtabida 3 ta qiz, Sobir Rahimovning mакtabida 15 ta qiz o'qigan. Qo'qon shahrining G'alchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy 1913-yilda qizlar maktabi tashkil qilgan. Abdulla Avloniy mакtabida ham qizlar o'g'il bolalar bilan yonma-yon o'tirib, tahsil olgan.

Turkiston jadidlari ayollarning bilim olishlari va jamiatning teng huquqli a'zosi sifatida o'zlariga munosib ish bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlar yaratishni o'z oilalaridan boshlaydilar. Jumladan, samarqandlik mакtabdor Abduqodir Shakuriy qizlar uchun tashkil etgan yangi usul mакtabida xotini Roziyaxonim muallimlik qilgan bo'lsa, Abdurauf Fitrat xonardonidagi adabiy va ma'rifiy muhit singlisi Mahbuba Rahim qizining shoira bo'lib yetishishini ta'minlagan. Qo'qonlik jadid Muhammadjon Xoliqiyning singlisi Soliyaxon Abduxoliq qizi esa akasining mакtabida muallimalik qilgan⁴.

Turkistonlik ziyoli ayollarning ko'zga ko'ringan yorqin vakilalaridan biri, jadid shoirasi Nozimaxonim (1870-1924) bo'lib, o'z davrining madaniyatli, ilg'or qarashli ayoli sanalgan. Nozimaxonim – erkparvarlik g'oyalarining targ'ibotchisi edi. Bu hol uning dastlabki maqola va she'rlaridayoq aniq ko'rinadi. Uning 1904 yilda "Turkiston viloyatining gazeti"da bositgan maqolalaridan biri "Insonga qancha erk darkor?" deb nomlangan edi. So'ng ketma-ket mahalliy matbuot sahifalarida "Xotinlar huquqiga oid", "Ilm va maorif borasida bir-ikki so'z" kabi maqolalari chop etilgan. Maqolalar mazmuni, ruhi bilan Turkistonda ozodlik g'oyalarining yoyilishi, xotin-qizlar o'rtasida demokratik intilishning kuchayishiga xizmat qilgan. Jadidlar faoliyatining keyingi davrida iste'dodli qizlarni xorijga o'qitish bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirildi. Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidova kabi iqtidorli o'zbek qizlari Germanianing oliy o'quv yurtlarida tahsil olib qaytganlar.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, jadidchilar o'z faoliyatlarida Turkiston yoshlarining milliy, madaniy, ijtimoiy uyg'onishida va yuksaq ravnaq topishida ulkan hissa qo'sha oldilar. O'sha davrning dolzarb masalalarini, hayotiy muammolarini ma'naviy nuqtai nazardan yechish yo'llarini yorqin ko'rsata oldilar. Ularning g'oyalari

³ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. "Yangi asr avlod" nashriyoti. 2015. B. 87.

⁴ Jamolova D. O'zbek xotin-qizlari kecha va bugun// "Jadid". 2025-yil, 28-fevral. 9-son.

bugungi globallashuv jarayonida ham yoshlarni bilim olishga, Vatan ravnaqi uchun halol mehnat qilishga, uni yuksaltirishda o’z bilim va salohiyatini ishga solish yo’llarini o’rganishda muhim o’rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. «Жадидлар ғоялари янги Ўзбекистон стратегияси билан ҳамоҳангдир»// <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/>
2. Mahmudxo’ja Behbudiy. Til masalasi // “Oyna” jurnali. 1915. B. 274-277. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/mahmudxo-ja-behbudiy-til-masalasi-1915>
3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. “Yangi asr avlodи” nashriyoti. 2015. B. 87.
4. Jamolova D. O’zbek xotin-qizlari kecha va bugun//”Jadid”. 2025-yil, 28-fevral. 9-son.